



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasidan
2024-2025-o‘quv yilida pedagoglarni qo‘shimcha rag‘batlantirish
to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qaroriga muvofiq vazirlik tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va o‘quvchilari yuqori natijalarga erishgan malakali pedagog kadrlarning mehnatini rag‘batlantirish hamda o‘z ustida doimiy ishlaydigan, o‘zining o‘qitish uslubiga va xalq orasida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida **buyuraman:**

1. Malakali pedagog kadrlarga har oylik ustama hamda ilg‘or xodimlarga bir martalik pul mukofotlarini to‘lash ishlarini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov), Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), 2024-yil 10-yanvarga qadar 2024-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasiga (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) ajratilgan mablag‘lardan kelib chiqqan holda, ushbu jamg‘arma hisobidan har oylik ustama to‘lanadigan malakali pedagog kadrlarning respublika bo‘yicha cheklangan sonini (keyingi o‘rinlarda — yillik kvota) belgilash yuzasidan tegishli takliflar kiritsin.

3. Bir hafta muddatda quyidagilar shakllantirilishi va Ishchi guruhga taqdim etilishi ta’minlansin:

a) Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan hamkorlikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilarini tegishli o‘quv yilida o‘qishga qabul qilishda oliy ta’lim tashkilotlariga kirish test sinovi natijalari bo‘yicha o‘rtacha ball;

b) Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining tegishli o'quv yilida o'qishga qabul qilishda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihoni natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar (abituriyentlar va imtihon o'tkazilgan fanlar bo'yicha);

d) Fan olimpiadalar o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov) xalqaro va asosiy olimpiadalarning Respublika bosqichida sovrinli o'rinlarni egallagan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari va ularni tayyorlagan o'qituvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar;

e) Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi (I.Xoldarova) hamda Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 2024-2028-yillarga mo'ljallangan xalqaro va respublika tanlov, musobaqa va festivallarning ro'yxati.

Bunda, har yili g'olib va sovrindorlar ro'yxati shakllantirgan holda taqdim etib boriladi.

4. Ishchi guruh (A.Qirg'izboyev) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining jamg'armasi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartib asosida:

umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari (o'quvchilari) tomonidan tegishli o'quv yili qabulida oliy ta'lim tashkilotlariga, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlarida jamlagan ballardan kelib chiqib, yillik kvotani "Boshlang'ich ta'lim", "Aniq va tabiiy fanlar", "Xorijiy tillar", "Ijtimoiy fanlar" va "Amaliy fanlar" yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan kengashlarga taqdim etish;

bunda, yillik kvotaning 92 foizi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarga va 8 foizi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablari pedagog kadrlariga ajratilishi belgilab qo'yilsin.

yillik kvotani taqsimlashda tuman (shahar)lar bo'yicha taqsimlash (keyingi o'rinlarda — tuman (shahar) kvotasi) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar kengashlari (keyingi o'rinlarda — hududiy kengashlar)ga taqdim etish;

hududiy kengashlar tomonidan taqdim etilgan nomzodlar orasidan har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni ikki bosqichda saralab olish;

bir martalik pul mukofotini olish huquqiga ega bo'lgan ilg'or xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlik rahbariyatiga taqdim etilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) Jamg'arma mablag'lari hisobidan har oylik ustama va bir martalik pul mukofotini olish huquqiga ega bo'lgan malakali pedagog kadrlar va ilg'or xodimlarning ro'yxatini vazirning tegishli buyrug'i tasdiqlangandan keyin 1 (bir) kun muddatda vazirlikning rasmiy veb-saytida doimiy ravishda e'lon qilinishi bo'yicha tegishli choralar ko'rsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshliqlari o'qituvchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar to'g'risida muntazam targ'ibot ishlarini olib borsin.

7. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) 2024-yil 10-yanvarga qadar Jamg'arma hisobidan har oylik ustama olish uchun nomzodlarni saralash bo'yicha reglament va texnik topshiriq ishlab chiqsin.

8. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) bir oy muddatda ajratilgan mablag'lar doirasida xarajatlar smetasini tasdiqlash chorasini ko'rsin.

Bunda, Jamg'arma mablag'lari doirasida (Jamg'armaning umumiy mablag'larining 1 (bir) foizdan oshmagan holda) saralash bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan, nomzodlarning o'z fani bo'yicha bilimni test imtihonlari bilan baholash, shuningdek, suhbat orqali saralash uchun tashkilotlar va ekspertlar uchun to'lovlar bo'yicha talab etiladigan mablag'lar dastlabki hisob-kitoblarga asosan xarajatlar smetasining tegishli moddasida ko'zda tutiladi.

9. Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi (J.Mannonov) Jamg'arma hisobidan har oylik ustama olish uchun nomzodlarni saralash maqsadida ishlab chiqilgan texnik topshiriq bo'yicha bozor narxlarini o'rganish yuzasidan tegishli ishlarni amalga oshirsin.

10. Pedagog xodimlarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustamalar, shu jumladan, mavjud sertifikatlari uchun to'lanadigan ustamalar, tarifikatsiya ro'yxatida ajratilgan dars soatlariga (o'qituvchining tarif stavkasiga) mutanosib ravishda to'lab beriladi.

11. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) har oylik ustamalar belgilangan kundan boshlab hamda bir martalik pul mukofotlari tasdiqlangan kundan bir oy davomida to'lab berilishini doimiy ravishda ta'minlasin.

12. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (Sh. Muxamedov) buyruqdagi topshiriqlar ijrosini mas'ullar tomonidan o'z vaqtida bajarilishini qat'iy nazoratga olsin.

13. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni vazir o'rinbosarlari, vazirlikning tarkibiy bo'linmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

14. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev hamda vazir o'rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklansin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 27-dekabr,
576-son